

**IJTIMOIY PSIXALOGIYA. JAMIYAT VA GURUHDA PSIXOLOGIK
XATTI-HARAKATLAR.**

Turg'unov Xasanboy Ibrohim o'g'li

Annotatsiya: Mazkur ishda ijtimoiy psixologiyaning asosiy tushunchalari, jamiyat va guruhlarda yuzaga keladigan psixologik xatti-harakatlar tahlil qilinadi. Shaxs va guruh o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar, ijtimoiy me'yorlar, stereotiplar, konformizm va guruh ta'siri kabi psixologik hodisalar yoritilgan. Shuningdek, guruh ichida shaxsning roli, ijtimoiy identifikasiya va guruhda qaror qabul qilish jarayonlari psixologik nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari jamiyatda sog'lom psixologik muhitni shakllantirishda, ijtimoiy munosabatlarni chuqur tushunishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy psixologiya, guruh psixologiyasi, xatti-harakat, jamiyat, konformizm, stereotip, ijtimoiy ta'sir, shaxslararo munosabatlar, guruh dinamikasi, psixologik muhit.

Hozirgi davrda insonning jamiyatdagi o'rni va guruhlar bilan bo'lgan o'zaro munosabatlarini chuqur o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy psixologiya shaxs va jamiyat o'rtasidagi murakkab psixologik jarayonlarni tahlil qiluvchi fan sohasidir. Har bir inson turli ijtimoiy guruhlarga mansub bo'lib, uning xatti-harakati, qarorlari va fikrlari shu guruhlar ta'sirida shakllanadi. Shu bois, jamiyatda yuz berayotgan psixologik hodisalarni to'g'ri tushunish, guruh ichidagi munosabatlarni tahlil qilish zamonaviy psixologik tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu mavzuda shaxsning jamiyatdagi o'rni, guruhda yuzaga keluvchi xatti-harakatlar, konformizm, stereotiplar va boshqa psixologik omillar ko'rib chiqiladi.

Ijtimoiy psixologiyaning mohiyati. Ijtimoiy psixologiya — bu shaxsning jamiyat va guruhlar bilan o'zaro munosabatlarini, ijtimoiy muhitda yuz beradigan psixologik holat va jarayonlarni o'rganuvchi fan sohasidir. U shaxsiy va guruhiy

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

xatti-harakatlar, ijtimoiy ta'sir, ijtimoiy idrok, motivatsiya va shunga o'xshash hodisalarni o'rganadi. Ushbu soha psixologiya va sotsiologiya fanlari orasidagi ko'prik vazifasini bajaradi.

Jamiyatdagi psixologik xatti-harakatlar. Jamiyatdagi har bir inson o'zining xulq-atvori, hissiyotlari va fikrlari orqali ijtimoiy muhitga ta'sir ko'rsatadi va shu bilan birga, o'zi ham ushbu muhit ta'sirida bo'ladi. Shaxslarning xatti-harakatlariga ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, madaniyat, an'analar va ijtimoiy me'yorlar katta ta'sir ko'rsatadi. Odamlar ko'p hollarda ijtimoiy kutilmalarga moslashish, guruh fikriga bo'ysunish (konformizm), yoki stereotiplarga asoslangan qarorlar qabul qilish holatlarida bo'lishadi

Guruhdagi psixologik jarayonlar. Insonlar turli guruhlarga mansub bo'lib, bu guruhlar ichida turli psixologik jarayonlar kechadi. Guruh ichida liderlik, ijtimoiy rollar, moslashuvchanlik, ijtimoiy identifikatsiya, ichki nizolar va qaror qabul qilish kabi muhim psixologik holatlar mavjud. Guruh a'zolari o'rtasidagi munosabatlar, ishonch va hamkorlik darajasi guruhning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tajribalarda isbotlanganidek, shaxs ko'pincha o'z mustaqil fikrini guruh fikriga moslashtirishga moyil bo'ladi.

Guruhdagi xatti-harakat turlari. Guruh ichida shaxslar turli vaziyatlarda turlicha xatti-harakatlar namoyon qiladi. Bu holatlarni quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

- Konformizm – shaxsning o'z fikri yoki xatti-harakatini guruh fikriga moslashtirishi. Masalan, kishining o'z nuqtayi nazaridan voz kechib, ko'pchilik fikriga ergashishi.
- Ijtimoiy sustlik (social loafing) – guruh ishida ayrim a'zolarning kamroq faollik ko'rsatishi, mas'uliyatning taqsimlangani sababli javobgarlik hissining kamayishi.
- Guruh fikrlashi (groupthink) – guruhda yagona fikrga erishish istagi individual tanqidiy fikrlashni cheklab qo'yadi.
- Ijtimoiy identifikatsiya – shaxs o'zini muayyan guruh a'zosi sifatida his qiladi va bu holat uning o'zini tutishiga bevosita ta'sir qiladi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Ijtimoiy ta'sir va uning shakllari. Ijtimoiy psixologiyada ta'sir o'tkazishning bir necha shakllari mavjud:

- Normativ ta'sir – inson guruh tomonidan ijtimoiy qabul qilinishi uchun unga mos harakat qiladi.
- Informatsion ta'sir – shaxs guruh fikrini ishonchli va to‘g‘ri deb qabul qilib, o‘z fikrini o‘zgartiradi.
- Autoritet ta'siri – mashhur shaxslar, rahbarlar yoki ommaviy axborot vositalari orqali ta'sir ko‘rsatish.

Shaxsning guruhdagi o‘zgarishi. Guruhdagi a’zolik insonning shaxsiy xususiyatlariga ham sezilarli darajada ta'sir ko‘rsatadi. U o‘z fikrlari, qadriyatları va xatti-harakatlarini guruh madaniyatiga moslashtira boshlaydi. Bu jarayon davomida ijtimoiy rollar, status va mavqe singari tushunchalar muhim o‘rin egallaydi. Shaxs o‘zining “men” obrazini ko‘p hollarda guruhdagi roli orqali shakllantiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy psixologiya insonning jamiyat va guruhdagi xatti-harakatlarini tushunishda muhim fan sohasidir. Shaxsning guruhdagi o‘rni, unga ko‘rsatiladigan ijtimoiy ta'sir, konformizm, stereotiplar, guruh dinamikasi kabi omillar insonning fikrashi va o‘zini tutishiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Guruhdagi psixologik jarayonlarni o‘rganish orqali jamiyatda sog‘lom munosabatlar, samarali jamoalar va ijobiy ijtimoiy muhitni shakllantirish mumkin. Ushbu mavzuni chuqr o‘rganish, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni to‘g‘ri anglashga yordam beradi va ijtimoiy hayotda ongli ishtirok etish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

- 1.Abdullayev Akmal Nasriddinovich (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. European science review, (3-4), 69-72.
2. N. Ismoilova, D.Abdullayeva. Ijtimoiy psixologiya. 2013. Qisqacha psixologik lug'at.- Rostov-na-Donu: FENİKS. L.A.Karpenko, A.V.Petrovskiy, M.G.Yaroshevskiy.1998.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- 3.G'oziyev E. G. Umumiy psixologiya. Toshkent 2002. 1-2 kitob
4. G'oziyev E. G. Muomila psixologiyasi.